

BOLA NUTQINING GENDER JIHATDAN XOSLANISHI

Marjona Anvar Qizi Bozorova,

NIU 70230101 – Lingvistika (O'zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Email: bozorovamarjona81@gmail.com,

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6699-9404>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bola nutqining gender jihatdan xoslanishi bilan bog'liq holatlar va bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda uning aks etishi kabi jihatlar namunalar misolida tadqiq etildi. Bundan tashqari, qabul qilish, tafakkur, xotira jarayonlarida ham farqli xususiyatlar borligi psixolingvistik jihatdan ko'rib chiqildi, bu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va bolalar auditoriyasi matnlari tahlil qilindi. Bola auditoriyasiga mo'ljallangan matnlarda bola nutqining gender jihatdan xoslanishi badiiy adabiyotlar misolida o'rganilib, umumiy xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: gender jihati, o'g'il bola, qiz bola, xotira, psixolingvistika, tafakkur, miya arxitektonikasi.

Аннотация. В данной статье на примерах исследуется гендерный аспект детской речи и его отражение в текстах, предназначенных для детской аудитории. Кроме того, с психолингвистической точки зрения рассматривается существование различных особенностей в процессах восприятия, мышления и памяти, а также анализируются исследования по этой теме и тексты, предназначенные для детской аудитории. Гендерный аспект детской речи в текстах, предназначенных для детской аудитории, изучается на примере художественной литературы, и делаются общие выводы.

Ключевые слова: пол, мальчик, девочка, память, психолингвистика, мышление, архитектура мозга.

Abstract. This article examines the gendered nature of children's speech and its reflection in texts intended for children's audiences using examples. In addition, the existence of different features in the processes of perception, thinking, and memory was examined from a psycholinguistic perspective, and studies conducted on this topic and texts intended for children's audiences were analyzed. The gendered nature of children's speech in texts intended for children's audiences was studied using the example of fiction, and general conclusions were drawn.

Keywords: gender, boy, girl, memory, psycholinguistics, thinking, brain architectonics.

Kirish. Ma'lumki, bola nutqining gender jihatdan xoslanishi — sotsiolingvistika, psixolingvistika va ontolingvistika sohalarining tutashgan kesishmasida o'rganiladigan

muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u o'g'il va qiz bolalar nutqining o'ziga xos tarzda shakllanishi, uning leksik-semantik, grammatik, intonatsion hamda kommunikativ-pragmatik darajadagi o'zaro sezilarli farqlarini tadqiq etadi. Olib borilgan tadqiqotlar va o'rganilgan manbalardan shuni ko'rsatadiki, bolaning nutqi gender jihatidan xoslanishiga qarab ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Biz bolani qiz yoki o'g'il bola deganimizda, tabiiyki, ularning ruhiy va tarbiyaviy tafovutlari mavjudligini nazarda tutamiz. Bunday farqlar V.V.Abramenkova (1987), R.Beron, D.Richardson (1997), V.Ye.Kagan (1987, 1989), A.V.Libin (1999), I.I.Lunin (1986), T.I.Yuferova kabi olimlarning empirik tadqiqotlarida qayd qilingan va asoslangan. Tafovutlar ikki muhitda namoyon bo'lishi kuzatiladi: shaxs rivojlanishining kognitiv sharoitida va ijtimoiy xulq muhitida. Kognitiv sohada jinsiy farqlar verbal, matematik qobiliyatlar va makonga oid bilimlarda namoyon bo'lishi aniqlangan. Ayollarda verbal salohiyat kuchli rivojlangan bo'lsa, erkaklarda matematik va makonga oid xususiyatlar ustunlik qiladi. Ijtimoiy xulq-atvor bo'yicha erkaklar tabiatiga ko'proq agressivlik va yetakchilikka o'xshash xossalar, ayollarga esa - muloqotmandlik hamda do'stonalilik xos deb qaraladi.¹⁹

Tafovut bolalikdanoq sezila boshlaydi: o'g'il bolalar erkinlikka, mustaqillikka intilsalar, qizaloqlarda o'zaro munosabatlarga kirishishga moyillik kuzatiladi. Bolalarning o'yinlarida ham bu holat aks etadi: ularning o'yinlarida odam soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Qizchalar esa, aksincha, kichik guruhlarga bo'linib o'ynashni ma'qul ko'rishadi, ularning o'yinlarida agressivlik kam, ko'proq katta insonlar o'zaro munosabatiga taqlid qilish kuzatiladi. Gender qoliqlar bolalikdanoq shakllanadi. Inson o'sib-ulg'ayishi bilan gender xosliklar yanada kengroq rivojlana boradi.²⁰

Istalgan kishilik jamiyatida o'g'il bolalar va qiz bolalar o'zlarini farqli tutadilar, o'z navbatida, istalغان kishilik jamiyatida o'g'il bolalar va qiz bolalardan farqli xulq-atvor kutadilar hamda shunga xos munosabatda bo'ladilar. Biroq kutilayotgan mazkur farqlar qanchalik katta va mushtarak, jinsiy differensiatsiya (jinsiy xosliklar) qonuniyatlari hamda shu madaniyatga yoki, umuman, gender ijtimoiylashuvi insoniyatga qanchalik mutanosibli soha vakillarini doim qiziqtirib kelgan.

Qiz bolalarda bosh miyaning chap yarim shari ya'ni til markazlari joylashgan hudud nisbatan tezroq rivojlanadi. Bu ularning nutqiy faoliyatni erta boshlashi, so'z boyligining tezroq ortishi va artikulyatsiyaning aniqligiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaning boshqalardan ajralib qolishi, kattalar bilan emotsional muloqotlarning yetishmasligi bola hayotining dastlabki oylaridan boshlab uning yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin.

¹⁹ Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent, 2007.

²⁰ Кон И.С. Ребенок и общество. М., 1988.

E. Makkobi, va D. Tannen konsepsiyalariga ko'ra,²¹ bola atrofidagi kattalar (ota-ona, tarbiyachilar) va tengdoshlar bilan muloqot jarayonida jamiyat tomonidan ma'lum bir jins uchun belgilangan kommunikativ rollarni o'zlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, amaliy va diskursiv tahlil usullaridan foydalangan holda bolalar nutqining gender jihatdan xoslanishi va bola auditoriyasi matnlarida uning aks etish holati o'rganildi o'ziga xos jihatlar bo'yicha amaliy tajribalar ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar. Bolalarning jinsiy jihatdan ijtimoiylashuvdagi tafovutlar bir tomondan bolaga qanday jins vakili sifatida berilgan tarbiyaga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, gender ramziylikka: ularga qanday ma'naviy-psixologik xususiyatlarning singdirilishiga bog'liq. Gender ijtimoiylashuvda kim asosiy ta'sir o'tkazuvchi sifatida gavdalanadi: ota-onami yoki bolaning atrofidagi o'z jinsdoshlari va yo qarama qarshi jins vakillarimi? Gender ijtimoiylashuv qanday amalga oshiriladi, bolani gender roliga o'rgatish qanday metodlar orqali hamda qay tarzda olib boriladi, bunda bolaning individual rivojlanishining qaysi bosqichida, qanday qabul qilishida qay bir psixologik mexanizmlar ishlaydi? Bu jarayonning yosh chegaralari va bosqichlari qanday? Mazkur savollar bolalarning gender xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan har bir tadqiqotchi oldida ko'ndalang turadi. Biz ham imkon qadar mana shu savollarga javob topishga urinib ko'ramiz.

Erkaklik va ayollikka xos bo'lgan ilk fazilatlar, shubhasiz, so'z, hissiyot va harakatlar orqali shakllantiriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar va qizlarning arxetiplari, ramzlari, obrazlari har xilligi ularning hissiy borlig'i va tafakkuri rivojlanishining turlichaligini dalillaydi. Ularning orzulari, xayollari, tasavvurlari har xil. Miya arxitektonikasi, mozaikasi ham boshqacha. Bu ham xorij mutaxassislari tomonidan tasdiqlangan²².

Qabul qilish, tafakkur, xotira jarayonlarida ham farqli xususiyatlar borligi uchun ham o'g'il bolalarning va qizlarning til chiqarishi, turli predmetlarni nomlashi, atrofidagi insonlarga murojaat qilishida o'ziga xosliklar qayd qilinadi. Qizlar nutqi nisbatan tez, ular o'g'il bolalarga qaraganda talaffuz jihatdan yumshoqroq gapiradilar, ularning nutqi his-tuyg'ularga boy, lekin o'g'il bolalarda so'zni aniq ma'noda to'g'ri ishlatish, gaplarning qisqa va ravon tuzilishi ko'proq kuzatiladi. Bundan tashqari o'g'il bola nutqida o'z "men"iga doimiy tarzda urg'u berilishi "men xohlayman", "men qildim", "menga ber" kabi shakllarda namoyon qilinadi. Qiz bolalar bir kun davomida "men"ni o'g'il bolalarga nisbatan ikki baravar kam ishlatishi qayd qilingan. Shu bilan bog'liq holda voyaga yetganda ham erkaklarda avtoritar uslub ustunligi yaqqol sezilib turadi - u oilada, umuman,

²¹ Maccoby E. E. The Two Sexes: Growing Up Apart, Coming Together. — Cambridge: Harvard University Press, 1998. — P. 45.

²² Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Toshkent, 2007.

jamiyatda yetakchi rollarni bajarishga intiladi. Erkak kishi o'z agressiyasini to'liq nazorat qila olishiga kafolat bermaydi, ko'pincha bu uning oila a'zolari yoki yaqinlariga jismoniy jihatdan zarar yetkazishga olib keladi. Ayollarda esa itoatkorlik xususiyati ustun bo'lib, u o'z tuyg'ularini bo'ysundirishni uddalaydi. Uning jahlini chiqarish oson emas, ayol o'z agressiv holatini kamdan kam hollarda namoyon qiladi. Bunda u, asosan, turli nome'yoriy leksikadan foydalanadi: qarg'ishlar, qattiq ovozda baqirish orqali jahlni namoyish qilish ayollarga xos deb qaraladi. Erkaklar kamdan kam hollarda qarg'ish so'zlarni ishlatadi, asosan, ular tilida so'kish ko'p kuzatiladi. Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ayollar nutqida ham so'kish so'zlari bor, lekin erkaklar ayollarning so'kishlarini ishlatmaydi va, aksincha, ayollar erkaklarning so'kishlaridan foydalanmaydi. Kichik yoshdagi bolalarda shunday so'zlarni aralash, bilib-bilmay qo'llash hollari kuzatilishi mumkin, biroq bu hol ko'p uchramaydi. Tabiiyki, savol tug'iladi: turli vaziyatlarda nima uchun erkaklar va ayollar o'zlarini turlicha tutadilar? Bizningcha, buning sababi - bolaga tug'ilishidan boshlab qaysi jins vakili ekanligiga monand tarbiya berilsa, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga jiddiy e'tibor berilsa, o'g'il bolalar ham, qizlar ham ulg'aygach kishilik jamiyatida o'z o'rnini munosib egallaydi.²³

O'zbek badiiy adabiyotida bolalar nutqining gender jihatdan xoslanishi asosan qahramonlarning muloqotuslub, leksik tanlovi, emotsionallik darajasi hamda ijtimoiy-madaniy rollarni aks ettirishi orqali namoyon bo'ladi. O'g'il bola nutqi (Hoshimjon):

*"— Men hozir sehrli qalpoqchani kiyaman-u, hammasini boplayman. Hech kim menga teng kela olmaydi!"*²⁴

Ushbu nutqda o'g'il bolalarga xos bo'lgan o'zini ko'rsatish, yetakchilikka intilish, qat'iy va maqtanchaklik modalligi ustun. Erkaklik sodiqroq bo'lgan "o'zini namoyon qilish" diskursiv strategiyasi yaqqol ko'rinadi.

Oysha — Hoshimjonning singlisi:

*"— Hoshimjon aka, unaqa qilmang, oyim urishadilar... Kelingsa, kitobingizni o'qishga yordamlashib yuboray."*²⁵

Ushbu murojaatda esa hurmat va erkalash shakli "aka, oyim", ogohlantirishda ham bilvosita iltimos hamda emotsional hamdardlik "yordamlashib yuboray" kabi so'zlar qo'llanilgan.

O'zbek oilaviy muhitida shakllangan verbal etiketa va genderga xos leksik kategoriyalar esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*"— Oparoz, ko'zlarimga qaradingizmi? Kelinoyim bergan ro'molchani taqsam, chiroyli bo'libmanmi?"*²⁶

²³ G.Iskandarova Nutqiy xulqning gender jihatdan xoslanishiga doir ba'zi mulohazalar, O'zMU

²⁴ To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Qissa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. — B. 118–120.

²⁵ To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Qissa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. — B. 118–120.

²⁶ Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. — Toshkent: Sharq, 2008. — B. 95.

Ushbu nutaqda tashqi ko‘rinish, estetik baho, emotsional bog‘liqlikni ifodalovchi sifatlar va savol-tasdiq konstruksiyalari faol qo‘llanilgan.

O‘g‘il bola nutqida esa predmetlilik va obyektga yo‘naltirilganlik jihatlari ustuvorlik qiladi:

“— Otam menga po‘lat pichoq yasab beradigan bo‘ldilar. O‘tkir, yog‘ochni ham yo‘nadi!”²⁷

Ushbu parchada predmetning funksional va fizik xususiyatlariga “*po‘lat, o‘tkir, yo‘nadi*” kabi so‘zlar orqali e‘tibor qaratilgan, harakat va vosita vositalarini bildiruvchi leksika ustunlik qilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bolalar nutqidagi gender farqlari biologik-neyropsixologik va sotsiokulturologik, ya‘ni jamiyatdagi gender rollari va lingvistik omillarning uzviy sintezi natijasida shakllanadi va yuzaga keladi.

Qiz bolalar nutqida emotsional-baholovchi leksika, estetik sifatlar hamda erkalash-kichraytirish affikslari *-cha, -jon, -xon* kabi qo‘shimchalar keng qo‘llanilishi ustunlik qilsa, o‘g‘il bolalar nutqida denotativ, ya‘ni harakat va predmetga yo‘naltirilgan leksika va odatda buyruq-stak maylidagi fe‘llar salmog‘i yuqoriligi kuzatiladi.²⁸

Xulosa shuki, muloqot jarayonida qiz bolalar nutqida ko‘pincha, diskursiv hamkorlik, ya‘ni muloqotni saqlash va bilvosita taklif, iltimos shakllaridan keng foydalaniladi va qiz bolalarning nutqi asosan erta shakllanadi. O‘g‘il bolalar esa o‘z nutqida iyerarxik yetakchilik, raqobat hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq berish taktikasini tanlashi bilan ushbu jins vakillari gender jihatdan xoslanishni o‘z nutqida ifoda etadi.

ADABIYOTLAR

1. G. Iskandarova. Nutqiy xulqning gender jihatdan xoslanishiga doir ba’zi mulohazalar // O‘zMU xabarlar. — Toshkent.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. — Toshkent, 2007. — 180 b.
3. Maccoby E. E. The Two Sexes: Growing Up Apart, Coming Together. — Cambridge: Harvard University Press, 1998. — 384 p.
4. Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. — Toshkent: Sharq, 2008. — 480 b.

²⁷ Said Ahmad. Ufq. Trilogiya. — Toshkent: Sharq, 2008. — B. 95.

²⁸ Цейтлин С. Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. — С. 105.

5. То‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Qissa. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. — 256 b.
6. Кон И. С. Ребенок и общество. — М.: Наука, 1988. — 270 с.
7. Цейтлин С. Н. Язык и ребенок: Лингвистика детской речи. — М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2000. — 240 с.

